e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/ec8k0r61

DEMOGRAFIK BASHORAT VA DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Mamayusupov Umidjon Kurbonovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, dotsent (PhD).
e-mail: umamayusupov10@mail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0005-2210-063X

Annotatsiya.
Mazkur maqolada demografik bashoratning davlat siyosatini shakllantirish va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni strategik rejalashtirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Maqolada aholining yosh-jins tarkibi, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya va aholining qarishi bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil qilish asosida hududiy demografik nomutanosibliklarni yumshatish va demografik ma’lumotlar infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: demografiya, demografik bashorat, aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, aholining qarishi, demografik dividend, inson kapitali, davlat demografik siyosati, mehnat resurslari.

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЙ ПРОГНОЗ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ

Мамаюсупов Умиджон Курбонович
Ташкентский университет информационных технологий, доцент (PhD).

Аннотация.
В данной статье исследуется значение демографического прогнозирования в формировании государственной политики и стратегическом планировании долгосрочного социально-экономического развития. На основе анализа возрастно-половой структуры населения, рождаемости, смертности, миграции и процессов старения населения разработаны научно-практические предложения по смягчению территориальных демографических диспропорций и совершенствованию инфраструктуры демографических данных.
Ключевые слова: демография, демографическое прогнозирование, численность населения, рождаемость, смертность, миграция, старение населения, демографический дивиденд, человеческий капитал, государственная демографическая политика, трудовые ресурсы.

DEMOGRAPHIC FORECASTING AND PRIORITY AREAS OF STATE POLICY

Mamayusupov Umidjon Kurbonovich
Tashkent University of Information Technologies, Associate Professor (PhD).

Abstract.
This article examines the significance of demographic forecasting in shaping state policy and strategically planning long-term socio-economic development. Based on an analysis of the age and sex structure of the population, birth rates, mortality, migration, and population aging processes, the article develops scientific and practical proposals aimed at mitigating regional demographic disparities and improving demographic data infrastructure.
Keywords: demography, demographic forecasting, population size, birth rate, mortality, migration, population aging, demographic dividend, human capital, state demographic policy, labor resources.

Kirish. Demografik jarayonlar jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Aholi soni, uning yosh-jins tarkibi, tug‘ilish va o‘lim darajasi, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya hamda oila tarkibidagi o‘zgarishlar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli demografik jarayonlarni o‘rganish, ularning kelajakdagi yo‘nalishlarini bashorat qilish va ushbu bashoratlar asosida davlat siyosatini shakllantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Guvohi bo‘layotganimizdek, jahonda sodir bo‘layotgan globallashuv, migratsiya jarayonlarining kuchayishi, aholi sonining o‘sishi, shaharlashuv sur’atlarining ortishi kabi ijtimoiy-demografik omillar ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, aholisi tez o‘sayotgan mamlakatlardan biri bo‘lgan respublikamiz aholisi milliy tarkibining rang-barangligi, aholi sonining 70 foizdan oshig‘ini o‘sib kelayotgan yosh avlod tashkil etishini inobatga olsak, demografik holat va uning istiqbollarini milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan tadqiq etish qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi yaqqol namoyon bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma’lumki, insoniyat uzoq yillik tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot davrida aholi nufusini o‘rganishga doimo e’tibor qaratib kelgan. Ijtimoiy hayot tarzining takomillashib, ilmiy bilimlar, nazariy fanlarning vujudga kelishi ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tahliliy xulosalar orqali tadqiq qilish imkoniyatini vujudga keltirdi. Ya’ni demografiya fanining

paydo bo‘lishi aholi nufusini ilmiy asosda tadqiq qilish imkoniyatini yaratdi. “Demografiya fanida nufus tarixini o‘rganishga alohida ahamiyat beriladi. Paleodemografiya ma’lumotlariga asoslangan holda qadim zamonlardan aholining o‘sish dinamikasi haqidagi bilimlar to‘planadi” [2. 105].

Demografik bashoratlar esa muayyan hudud yoki mamlakat aholisining kelajakdagi soni va tarkibini ilmiy usullar asosida baholash jarayonini o‘z ichiga oladi. Bunday bashoratlar odatda tug‘ilish, o‘lim va migratsiya kabi asosiy demografik komponentlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bashorat natijalari maktablar, shifoxonalar, uy-joylar, transport infratuzilmasi, mehnat bozori va ijtimoiy himoya tizimiga bo‘lgan kelajak ehtiyojni oldindan belgilash imkonini beradi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari demografik rivojlanishning turli bosqichlarini boshdan kechirmoqda. Ayrim davlatlarda, jumladan, aksariyat Yevropa va Sharqiy Osiyo davlatlarida tug‘ilish darajasining pasayishi asosiy muammo bo‘lsa, Janubiy Osiyo va ayrim Afrika davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida ham aholining tez sur’atlarda ko‘payishi, yoshlar ulushining yuqoriligi, ish o‘rinlariga ehtiyojning ortishi kabi masalalar dolzarbdir. Shu nuqtai nazardan, demografik siyosatning har bir mamlakatning o‘ziga xos sharoitlaridan kelib chiqib shakllantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatshunos J. Kolduell demografik o‘zgarishlarni jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishidagi chuqur o‘zgarishlar bilan bog‘laydi. Uning fikricha, tug‘ilishning pasayishi faqat daromadlar o‘zgarishining natijasi emas, balki oila tuzilishi, ta’lim, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va avlodlararo munosabatlar o‘zgarishi bilan ham bog‘liq [3. 297]. Mazkur yondashuvning ahamiyati shundaki, tug‘ilishni faqat moliyaviy rag‘batlar orqali boshqarish mumkin degan sodda tasavvur yetarli emas. Tug‘ilishga oilaning iqtisodiy ahvoli bilan bir qatorda ta’lim darajasi, uy-joy sharoiti, nikoh yoshi, mehnat bozori, ayollarning bandligi, bola parvarishi infratuzilmasi va ijtimoiy normalar ham ta’sir qiladi.

Demografiyada yana bir muhim konsepsiya — demografik dividend konsepsiyasidir. D. Blum, D. Kenning va J. Sevilya tadqiqotlarida aholi yosh tarkibining o‘zgarishi iqtisodiy o‘sish uchun qulay imkoniyat yaratishi mumkinligi asoslangan. Ular aholi sonining o‘zi emas, balki aholining yosh tarkibi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat bozori va moliyaviy institutlar bilan birgalikdagi ta’siri iqtisodiy natijalarni belgilashini ko‘rsatadi [4].

MUHOKAMA

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, zamonaviy demografik jarayonlarda bir qator umumiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ulardan biri urbanizatsiyaning kuchayishidir. Albatta, mazkur tendensiya O‘zbekistonga ham xosdir. Aholining shaharlarga ko‘chishi sanoat, xizmat ko‘rsatish va ta’lim imkoniyatlarining shaharlarda jamlanishi bilan bog‘liq. Urbanizatsiya iqtisodiy faollikni oshirishi mumkin, biroq u transport, uy-joy, kommunal infratuzilma, ekologik xavfsizlik va shahar boshqaruvi sohalarida yangi vazifalarni yuzaga keltiradi.

Ikkinchi muhim tendensiya — aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlardir. Ayrim mamlakatlarda tug‘ilishning uzoq muddat davomida pasayishi natijasida keksa aholi ulushi ortib bormoqda. Bu holat pensiya ta’minoti, tibbiy xizmatlar va parvarish tizimiga qo‘shimcha talab paydo qiladi. Boshqa mamlakatlarda esa yoshlar ulushi yuqori bo‘lib, bu ta’lim va mehnat bozoriga katta bosim yuzaga keltirishi mumkin.

Uchinchi tendensiya — ichki va tashqi migratsiyaning kuchayishidir. Migratsiya mehnat bozoridagi nomutanosibliklarni qisman yumshatishi, aholi daromadlariga ta’sir ko‘rsatishi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi mumkin. Shu bilan birga, migratsiyaning yuqori darajasi mehnat resurslarining hududiy taqsimoti, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan talabda o‘zgarishlar keltirib chiqaradi.

To‘rtinchi muhim yo‘nalish — oila va nikoh munosabatlarining o‘zgarishidir. Ta’lim olish muddatining uzayishi, shaharlashuv, ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki, uy-joy va daromad masalalari oila qurish va farzandlar soniga ta’sir qiluvchi omillar qatoriga kiradi. Shu sababli demografik siyosatni faqat tug‘ilish ko‘rsatkichlariga ta’sir qilish bilan cheklash yetarli emas. Aholi farovonligi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, mehnat bozori va hududiy rivojlanish kabi yo‘nalishlar kompleks ravishda ko‘rib chiqilishi zarur.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda aholi farovonligi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlarni olish, davlatning barqaror rivojlanish milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, ular asosida aholining soni, jinsi, oilaviy ahvoli, ma’lumoti, hayot darajasi, yashash sharoiti, bandligini demografik jihatdan tavsiflash orqali ijtimoiy muammolarni hal qilishga katta e’tibor qaratilmoqda [5. 166].

O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev “...mamlakatimiz iqtisodiy qudratining o‘sishi, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, ayniqsa qishloq joylarda bunga erishish — avvalambor, mamlakatimiz hududlarining kompleks va izchil rivojlanishi bilan belgilanishini yaxshi tushunamiz. Bu — bizning ham yaqin, ham uzoq muddatli istiqboldagi vazifamizdir”, — deydi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy statistika qo‘mitasining 2026-yil 27-yanvardagi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 38 236,7 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 foizga ko‘paygan. 2025-yil yanvar–dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 879,6 ming nafarni, vafot etganlar soni 177,1 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o‘sish 702,5 ming kishiga teng bo‘ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko‘chib kelganlar soni 1 159 kishini va mamlakatdan xorijga ko‘chib ketganlar soni 10 117 kishini, qayd etilgan nikohlar 267,1 mingtani, nikohdan ajralishlar 46,9 mingtani tashkil etgan [7].

“Kun.uz” axborot tahririyatining 2026-yil 16-aprelda tarqatgan Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yil 1-aprel holatiga O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 38 million 382 ming 685 nafarni tashkil etgan. Bu raqamlardan ko‘rinadiki, taxminan 2 oyning ichida O‘zbekiston aholisi soni 146 000 nafarga ortgan. Qayd etilishicha, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 foizga oshgan bo‘lib, mamlakatda aholi soni barqaror o‘sishda davom etmoqda [8].

Aholi soni va tarkibi jamiyatning barqaror rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladigan asosiy omillardan

hisoblanadi. Aholi soni va tarkibi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Ularning mutanosib va muvozanatli bo‘lishi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, aks holda esa turli muammolarga olib kelishi mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotdan ko‘rish mumkinki, O‘zbekistondagi tug‘ilish darajasi barqaror rivojlanib bormoqda va bu yaqin kelajakda tug‘ilish bilan bog‘liq hech qanday muammolar bo‘lmasligini ifodalaydi.

Demografik jarayonlar iqtisodiy o‘sish bilan ikki tomonlama bog‘liq. Bir tomondan, aholi soni va tarkibi iqtisodiyotning mehnat va iste’mol salohiyatini belgilasa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy sharoitlar tug‘ilish, migratsiya va oilaviy qarorlarga ta’sir ko‘rsatadi.

B.X. Umurzakov mehnat bozori va demografik bosim masalalarini o‘rganib, aholi dinamikasi bilan mehnat resurslaridan foydalanish o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratib, aholida mehnatga layoqatli qatlamning ulushi yuqori bo‘lgan davr demografik dividend uchun imkoniyat yaratishi mumkin, deydi [6]. Ammo bunday imkoniyat avtomatik ravishda iqtisodiy natijaga aylanmaydi. Buning uchun sifatli ta’lim, munosib ish o‘rinlari, sog‘lom mehnat muhiti va samarali iqtisodiy institutlar zarur.

Aholining qarishi esa davlat moliyasi va ijtimoiy himoya tizimi oldiga yangi vazifalar qo‘yadi. Pensiya, tibbiy xizmat va ijtimoiy parvarish xarajatlarini uzoq muddatli rejalashtirish talab etiladi. Shu bilan birga, keksa aholining jamiyatdagi faolligini saqlab qolish, ularning tajribasidan foydalanish va munosib hayot sharoitlarini ta’minlash ham muhim hisoblanadi.

Demografik siyosat ijtimoiy tenglik masalasi bilan ham bog‘liq. Turli daromad guruhlari, shahar va qishloq aholisi, turli hududlarda yashovchi fuqarolarning ta’lim, tibbiyot, uy-joy va mehnat imkoniyatlaridagi farqlar demografik natijalarga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun davlat siyosati aholining turli qatlamlari uchun asosiy ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlashga yo‘naltirilishi zarur.

Bizning fikrimizcha, demografik bashoratdan samarali foydalanish uchun uni davlat strategik rejalashtirish tizimiga integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Bunda demografik ko‘rsatkichlar iqtisodiy o‘sish, mehnat bozori, ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy va hududiy rivojlanish rejalari bilan o‘zaro bog‘lanishi lozim.

Avvalo, davlat miqyosida bir nechta demografik ssenariylarni ishlab chiqish zarur. Har bir ssenariyda tug‘ilish, o‘lim va migratsiya bo‘yicha ehtimoliy o‘zgarishlar hisobga olinib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari baholanishi mumkin.

Ikkinchidan, demografik o‘zgarishlarga javob beruvchi indikatorlar tizimini shakllantirish muhim. Ya’ni mehnat yoshidagi aholi soni, maktab yoshidagi bolalar soni, keksalar ulushi, migratsiya va urbanizatsiya darajasi kabi ko‘rsatkichlar davlat dasturlarini rejalashtirishda muhim asos bo‘la oladi.

Uchinchidan, demografik siyosat idoralararo hamkorlikni talab qiladi. Chunki demografiya faqat statistika yoki aholi masalalari bilan shug‘ullanuvchi organlarning vazifasi emas. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, mehnat, uy-joy, transport va hududiy rivojlanish sohalaridagi qarorlar ham demografik natijalarga ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, demografik siyosat idoralararo hamkorlikni talab qiladi. Chunki demografiya faqat statistika yoki aholi masalalari bilan shug‘ullanuvchi organlarning vazifasi emas. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, mehnat, uy-joy, transport va hududiy rivojlanish sohalaridagi qarorlar ham demografik natijalarga ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, demografik bashorat davlatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asosdir. Aholi soni va tarkibidagi o‘zgarishlarni oldindan baholash orqali ta’lim, tibbiyot, mehnat bozori, uy-joy, ijtimoiy himoya va infratuzilma sohalarida kelajak ehtiyojlarni aniqroq belgilash mumkin bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, davlat demografik siyosati kompleks, uzoq muddatli va ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Demografik bashoratlarni muntazam yangilash, sifatli statistik ma’lumotlardan foydalanish, bir nechta ssenariylarni hisobga olish va davlat siyosatining turli sohalarini o‘zaro muvofiqlashtirish kelajakdagi demografik o‘zgarishlarga tayyor turish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining hayotbaxsh manbai // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: NMIU, 2018. – B. 72.

2. Nazarov Q. Falsafa qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. – B. 105.

3. Caldwell J. C. Demographic Theory: A Long View // Population and Development Review. – 2004. – Vol. 30, № 2. – P. 297–316.

4. Bloom D. E., Canning D., Sevilla J. The Demographic Dividend: A New Perspective on the Economic Consequences of Population Change. – Santa Monica: RAND, 2003.

5. G‘ulomov I. O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olish tadbirlari: tarix va bugun. – Toshkent: RLNUR-PRINT, 20226. – B. 166.

6. Umurzakov B. X. Ijtimoiy hayot va demografik bosimlar // Xalq so‘zi. – 2018. – 19-dekabr.

7. O‘zbekiston Respublikasining demografik holati [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66541-o-zbekiston-respublikasining-demografik-holati.

8. Kun.uz [Elektron resurs]. – URL: https://kun.uz/kr/43805187.